


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN TO'QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI**



"TASDIQLAYMAN"

Namangan to'qimachilik sanoati instituti

rektori Q.M. Xoliqov Q.M. Xoliqov

2024-yil " "

Ro'yxatga olindi _____ № _____

**METROLOGIYA, STANDARTLASH VA SERTIFIKATLASH FANINING
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	700 000	- Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	720 000	- Ishlab chiqarish va ishlov berish soha
Ta'lim yo'nalishi:	60721200	- Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (trikotaj)

Namangan-2024

Fan/modul kodi MSVSA1704	O'quv yili 2024-2025	Semestr (lar) 7	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Talim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
1.	Fanning nomi Metrologiya, standartlash va sertifikatlash asoslari	Auditoriya mashg'ulotlari (soat) 60	Mustaqil ta'lim (soat) 60
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - o'lchov birliklari bilan tanishish, SI Xalqaro birliklar tizimida ishlatilayotgan birliklar, ularning kelib chiqishi, standartlashtirish ishlari, sertifikatlashtirish tashkilotlari va ularning vazifalarini o'rganish.</p> <p>Fanni vazifasi - talaba metrologiya sohasida birliklarning kelib chiqishi, ularning ishlatilishi, vazifalari, to'qimachilik sanoat korxonalarida olhash asboblarining metrologik xususiyati, standartlashtirishning turlari va vazifalari, standartlar va texnikaviy shartlarni ishlab chiqish tartibi, uni tasdiqlash, sertifikatlashtirish tashkilotlari, muvofiqlik sertifikati haqida ma'lumotlar, sertifikatlashtirish tizimining modellari, laboratoriyani akkreditlashtirish ishlari bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.</p>		
<p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>Fan tarkibiga qiyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. “Metrologiya, standartlash va sertifikatlash asoslari” fanining rivojlanishi va ahamiyati. Metrologiya fanining rivojlanishi va ahamiyati, metrologik tushunchalar haqida ma'lumot, O'zbekiston Davlatning o'lhashlar birligini ta'minlash davlat tizimi, metrologiyaning asoschilarini, Agentlikning asosiy vazifalari.</p> <p>2-mavzu. Fizikaviy kattaliklarning birliklar tizimi. Fizikaviy kattaliklarning birliklar tizimining rivojlanishi, O'lchovlarni, vositalarni va o'lhash usullarini yaratishda Markaziy Osiyoda, ya'ni Bog'dodda «Baytul hikma» (“Donishmandlar uyi”)ning buyuk olimlari Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Ibn-Sino, Abu-Rayhon Beruniylar ijodi, Gauss tizimi birliklari. XI-Bosh konferensiyasi "SI" tizimini qabul qilish, SI tizimining afzalliklari, SI tizimidan tashqari bo'lgan birliklar, SI tizimi bilan barabar ishlatilishi mumkin bo'lgan birliklar, maxsus sohada ishlatilishi mumkin bo'lgan birliklar.</p> <p>3-mavzu. O'lhashning turlari va usullari. O'lhashning turlari va uslublari, fizik o'lchovlarni o'lhash uslublari, statik va dinamik o'lhash, o'lhash ishlarida ishlatiladigan asbob-uskunalarining turlari, o'lhash vositalari xususiyatlari bo'yicha turlar, o'lhash vositalarining avtomatlashtirilgan darjasи, o'lhashning aksiomalari, to'qimachilik va</p>			

yengil sanoat sohasidagi sinash asboblarining asosiy metrologik ko'rsatkichlari, o'lhash xatoliklari va ularning turlari, o'lhash asboblarining konstruktiv kamchiliklari tufayli kelib chiqadigan xatolik turlari, ehtimollik koeffitsiyenti.

4-mavzu. O'zbekiston Respublikasi metrologik xizmati. Metrologik xizmat bo'yicha Agentlikning asosiy vazifalari, Agentlikning ilmiy asosi, Agentlikning texnikaviy asosi, Agentlik boshchilik qiladigan davlat metrologik xizmati, metrologiya bo'yicha Davlat boshqarish faoliyati.

5-mavzu. Metrologiya sohasida ishlataladigan birliklar, o'lhash vositalari va standart namunalarini ustidan tekshiruv nazoratini olib borish. Metrologik tekshiruv va nazoratning asosiy vazifalari, o'lhash vositalarini qiyoslash, metrologik attestatsiyalash va sinash, Milliy etalonlar markazi, O'lhash vositalarini qiyoslash tartibi va qoidalariga talablar O'zDSt 8.003:2005 "O'lhash vositalarini qiyoslash. Asosiy nizomlar".

6-mavzu. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish Davlat tizimi. O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish Davlat tizimining asosiy qonun-qoidalari, standartlarning turlari, standartlashtirishning asosiy maqsad va vazifalari. Halqaro, davlat, tarmoq, millatlararo, respublika va h.k. standartlari. To'qimachilik sanoat korxonalarida standartlashtirishning turlari, texnik shart standarti, tajriba uslubi, o'lhash asboblarining tekshirish uslubi.

7-mavzu. Standartlashtirishning asosiy qonun-qoidalari. Standartlashtirishning asosiy qonun-qoidalari, standartlashtirish ishlarini tashkil etish, standartlashtirish sohasida meyoriy hujjatlarning toifalari, standartlarni ishlab chiqish va uni tasdiqlash.

8-mavzu. Standartlar va o'lchov vositalari ustidan davlat nazorati. Standartlarni ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish, standartlashtirish loyihasini ishlab chiqish, standartni ishlab chiqish tartibi

9-mavzu. Standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish. Standartni tasdiqlash ishlari, standartni davlat ro'yxatidan o'tkazish, standart loyihasiga tushuntirish xatining tuzilishi, bayoni, rasmiylashtirilishi va mazmuni. standartni joriy qilishning texnik-iqtisodiy samaradorligi.

10-mavzu. Sertifikatlashtirishning ahamiyati. Mahsulotni sertifikatsiyadan o'tkazishning ahamiyati, standartlashtirish va sertifikatsiyalashtirish bo'yicha huquqiy savdo va qonuniy bog'lanishlar. O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrdagi "Mahsulot va xizmat sertifikatsiyasi to'g'risidagi" qonuni.

11-mavzu. Mahsulotni sinash va sertifikatlashtirish. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish sohalari, sifat bo'yicha raqobatbardoshlikni ta'minlash, sertifikatsiyalashtirish tartibi, muvofiqlik sertifikati yoki muvofiqlik belgisi

faoliyatini bekor qilish va to‘xtatib qo‘yish.

12-mavzu. Sertifikatlashtirish haqida ma‘lumot. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiyalashtirish markazining asosiy vazifasi, mahsulot birligini sertifikatsiyalashlirish bo‘yicha akkreditlangan idoralar, majburiy sertifikatsiyalashtirish ishlarining davlat tomonidan moliyaviy ta‘minoti.

13-mavzu. Sertifikatlashtirish sxemalari. Sertifikatsiyalashtirish tizimlari. Sertifikatsiyalashtirish sxemalari. sertifikatsiyalashlirish tashkilotlari, inspeksiya nazoratining asosiy vazifasi, bog‘liqsizlikning asosiy turlari, muvofiqlik belgisining belgilanishi.

14-mavzu. Sinov laboratoriyasini akkreditlashtirish. O‘zbekiston Respublikasining sertifikatsiyalashtirish Milliy tizimi. akkreditlash attestati, sinov laboratoriyasini akkreditlash va ularni tekshiruvchan nazoratni amalga oshirish, akkreditlashtirilgan sinov laboratoriyasining vazifalari va huquqlari.

III. Tajriba mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:

Tajriba mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Metrologiya sohasida ishlatiladigan asosiy atamalar va ta‘riflar.
2. Xalqaro birliklar tizimini o‘rganish.
3. Sinov yo‘li bilan olingan natijalarni baholash usuli.
4. Zamonaviy mato uzish mashinasining asosiy metrologik xususiyatini o‘rganish.
5. Sertifikatlashtirishda asosiy atamalar va ta‘riflar.
6. Paxta tolasini sertifikatlashtirish.
7. To‘qimachilik iplarini sertifikatlashtirish.
8. To‘qimachilik matolarini sertifikatlashtirish.
9. Standartlashtirishning asosiy qonun-qoidalari.
10. Standartlar va o‘lchov vositalari ustidan davlat nazorati.
11. Standartni tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.
12. Texnikaviy shartlarning loyihamalarini ishlab chiqish.
13. Korxona standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, standartlar va texnikaviy shartlar bilan ta‘minlash tartibi.
14. Sertifikatlashtirishning ahamiyati.
15. Mahsulotni sinash va sertifikatlashtirish.

Amaliy mashg‘ulotlari multimedia qurulmalari va tajriba mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun jihozlangan xonlarda 12-15 nafargacha talaba bo‘lgan kichik guruhlarda o‘tiladi. Mashg‘ulotlar faol va interfaol usullar hamda virtual laboratoriyalardan foydalangan holda o‘tiladi.

Izox: *Hindiston davlatining Indian textile of engineering

** “Uztest” Namangan filiali tavsiyasi asosida olingan

IV. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta‘lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Standart bo‘yicha paxta ipining sifatini baholash.
2. Tosh paxta tolasi va ipining sifatini belgilovchi standartlar.
3. Standart bo‘yicha lub iplarining sifatini baholash.
4. Kimyoviy tola va iplaming sifatini belgilovchi standartlar.
5. Standart bo‘yicha trikotaj va noto‘qima matolarining sifatini baholash.
6. Sertifikatlashtirish asosiy malumotlar xalqaro sertifikatlashtirish tashkilotlari.
7. Mahsulot, xizmat sertifikasiyasini tashkil etish.
8. Sertifikatlashtirish me‘yoriy ta‘minotiga talablar.
9. Ekspert-auditorlar va tekshiruvchan nazorat.
10. Mahsulot sifatini ta‘minlash va boshqarish Sifat menejmenti tizimi.
11. Xorijiy davlallarda sertifikatlashtirish ishlarini olib borish haqida internet ma‘lumotlari.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular boyicha talabalar tomonidan referatlar tayorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.

V. Ta‘lim natijalari/Kasbiy kompitentsiyalar:

Talabalar bilishi kerak:

“Metrologiya, standartlash va sertifikatlash asoslari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- metrologiya fanining rivojlanishi va ahamiyali, metrologiya sohasida ishlatiladigan ta‘riflar;
- o‘lchashning turlari va uslublari, fizik o‘lchov birliklari va ularning yuzaga kelishi;
- to‘qimachilik materialshunosligida SI tizimi birliklarining qo‘llanilishi;
- to‘qimachilik sanoat korxonalarida o‘lchash asboblarining metrologik xususiyati;
- standartlashtirish Davlat tizimi ***haqida tasavvurga ega bo‘lishi***;
- standartlashtirish turlari, standartlashtirishning asosiy qonun-qoidalari;
- standartlar va o‘lchov vositalari ustidan Davlat nazorati;
- standartni tasdiqlash va Davlat ro‘yxalidan o‘tkazish, texnikaviy shartlarning loyihibarini ishlab chiqish;
- mahsulot sifati va unga quyiladigan talablar, sertifikatlashtirishning ahamiyati, mahsulot sertifikasiyasini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- sertifikatlashtirish sxemalari, serifikatlashtirishda tekshiruvchan nazorat;
- mahsulot sifatini boshqarish usullari kabi ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi***;
- muvofiqlik sertifikati va belgisi, ishlab chiqarish va sifat tizimlarini sertifikatlashtirish:

	<p>-sertifikatlashtirish tashkilotlari, sertifikatlashtirish tashkilotlarini akkreditlashtirish to‘g‘risidagi <i>malakalariga ega bo‘lishi kerak</i>.</p>
4.	<p>VI. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma‘ruzalar; • amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari; • kichik guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • jamoa bo‘lib ishlash; • vedio materiyallar tayyorlash; • individual ishlash.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to‘liq o‘zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo‘yicha berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida topshirish</p>
6.	<p align="center">Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati</p> <p align="center">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш. Дарсли А.А.Абдуллаев. Т.: “Шарқ”; 2018.-624 б. 2. Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш, сифат А.А.Абдувалиев, В.Б.Латипов ва б. СМСИТИ Тошкент-2008й 3. Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш П.Р.Исматуллаев П.Р., П.М.Матякубова, Ш.А.Тураев. Т.:“ЛЕССО ПРЕСС”, 2015 й. 4. Матмусаев У.М., Кулметов М., Очилов Т.А., Тойирова Т.А., Мухтаров Ж.Р. Метрология, стандартлаш ва сертификатлаш асослари. Тошкент: “Адабиёт учқунлари”, 2018. 5. Mirxojayev M.M., Qosimov A.A. “TO‘qimachilik sanoatida zamonaviy O‘lchov vositalari” Namangan: “Namangan” 2022. 6. Mirxojayev M.M., “ Zamonaviy O‘lchov vositalari” Namangan: “Chustiy” 2021. 7. Mirxojayev M.M., Qosimov A.A., Mamadaliyeva D., “O‘lhash birligini ta‘minlash asoslari” Namangan:”Mashrab” 2024. <p align="center">Qo‘srimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ўзбекистон Республикасининг “Метрология тўғрисида”ги Қонуни. 28.12.1993 йил. 2. Ўзбекистон Республикасининг “Маҳсулот ва хизматларни сертификатлаштириш тўғрисида”ги Қонуни. 28.12.1993 йил. 3. O‘zst ISO 9001:2015 “Сифат менежменти тизимлари талаблар” Ўзбекистон Республикаси Давлат стандарти.

Axborot manbaalari:

1. [https://nim.uz/biz-haqimizda/hududiy filiallar/namangan-filiali/](https://nim.uz/biz-haqimizda/hududiy_filiallar/namangan-filiali/)
2. <https://uztest.uz/>
3. <https://www.standart.uz/map/view?id=5>
4. www.zivonet.uz
5. www.lex.uz
6. www.uster.com
7. www.uzts.uz
8. www.edu.uz
9. www.gov.uz
10. <https://www.standart.uz/map/view?id=5>
11. <https://akkred.uz:8081/media/file/pdf/2023-08/b9a091f1-140c-44b2-b9a9b9dd4f1eb800.pdf#toolbar=0>

7. Namangan to‘qimachilik sanoati instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

8. Fan/modul uchun mas’ullar:

M.M.Mirxojaev-NamTSI, “Trikotaj texnologiyasi” kafedrasi dotsenti, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).

9. Taqrizchilar:

D. Parpiyev- NamTSI, “To‘qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasi mudiri, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti.

A.A.Qosimov - NamMTI, “Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish” kafedrasi mudiri, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD). (turdosh OTM)